



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI



PRESS-RELIZ



2023-yil yanvar-dekabr



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

### ASOSIY KO‘RSATKICHLAR

2023-yil yanvar-dekabr, dastlabki ma’lumotlar

## Doimiy aholi soni

(2024-yil 1-yanvar holatiga)

**36 799,8**  
ming kishi



**961 962**

nafar

### Tug‘ilganlar

**+3,2%**

2022-yilning mos davriga nisbatan o‘shish

Tug‘ilish koeffitsiyenti = 26,4 ‰ (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 ‰ ga oshgan)



**172 772**

nafar

### Vafot etganlar

**+0,4%**

2022-yilning mos davriga nisbatan o‘shish

Vafot etish koeffitsiyenti = 4,7 ‰ (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 ‰ ga kamaygan)



**789 190**

nafar

### Tabiiy o‘shish

**+3,8%**

2022-yilning mos davriga nisbatan o‘shish

Tabiiy o‘shish koeffitsiyenti = 21,7 ‰ (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 ‰ ga oshgan)



**2 955**

kishi

**Xorijdan  
ko‘chib  
kelganlar**



**-14 381**

kishi

**Migratsiya saldosini**

**17 336**

kishi

**Xorijga  
ko‘chib  
ketganlar**

## Doimiy aholi sonining umumiy o‘shishi



**+774,9** ming kishi

2022-yilning mos davriga nisbatan 2,2 ‰ ga oshgan.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

### ASOSIY KO‘RSATKICHLAR

2023-yil yanvar-dekabr, dastlabki ma’lumotlar

**Demografiya statistikasi** – ijtimoiy-iqtisodiy statistika sohalaridan biri bo‘lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig‘ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi;

### QAYD ETILGAN NIKOHLAR VA NIKOHDAN AJRALISHLAR



283 808 ta

Qayd etilgan  
nikohlar soni



49 198 ta

Nikohdan  
ajralishlar soni




### MING AHOLIGA NISBATAN:

Nikohlar, promille



7,8 ‰



Nikohdan ajralishlar, promille

1,4 ‰



Bunda har 1000 ta tuzilgan nikohga to‘g‘ri keladigan nikohdan ajralishlar soni **nikoh mustahkamligi koeffitsiyentini** ifodalaydi.


173,3 ‰

1000 ta nikohga  
to‘g‘ri keladigan ajralishlar




+9,2 ‰

2022-yilga nisbatan o‘zgarish



## O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni


2024-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi



2024-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni **36 799,8** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **18 525,0** ming kishini, ayollar soni **18 274,8** ming kishini, shahar aholisi soni **18 768,5** ming kishini, qishloq aholisi soni **18 031,3** ming kishini tashkil etdi.

## Doimiy aholi sonining jinsi, shahar va qishloq joylari bo'yicha taqsimlanishi


1-yanvar holatiga, ming kishi



*Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni* – Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi);

### Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi

*1-yanvar holatiga, ming kishi*



*Yosh* – imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o‘lchangan, tug‘ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo‘lgan davr oralig‘iga tengdir.

### Doimiy aholi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

*1-yanvar holatiga, ming kishi*

Yosh guruhlari	2020	ulushi, %	2021	ulushi, %	2022	ulushi, %	2023	ulushi, %
<b>Jami</b>	<b>33 905,2</b>	<b>100,0</b>	<b>34 558,9</b>	<b>100,0</b>	<b>35 271,3</b>	<b>100,0</b>	<b>36 024,9</b>	<b>100,0</b>
Bolalar soni 0-4 yosh	3 647,0	10,8	3 756,1	10,9	3 932,8	11,2	4 162,2	11,6
O‘smirlar soni 5-13 yosh	5 699,8	16,8	5 872,3	17,0	5 984,1	17,0	6 031,2	16,7
Yoshlar soni (14-30 yosh)	9 790,4	28,9	9 726,6	28,1	9 685,6	27,5	9 654,4	26,8
O‘rta yoshlilar soni 31-59 yosh	12 005,7	35,4	12 279,3	35,5	12 565,7	35,6	12 893,6	35,8
Katta yoshlilar soni 60 yosh va kattalar	2 762,3	8,1	2 924,6	8,5	3 103,1	8,7	3 283,5	9,1

## Qoraqalpog‘iston Respublikasida yashovchi doimiy aholi soni 2 milliondan oshdi




2024-yil 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasida yashovchi doimiy aholi soni 2 002,7 ming kishini, shundan erkaklar 1 005,9 ming kishini, ayollar esa 996,8 ming kishini tashkil etdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida yashovchi doimiy aholi soni ilk bor 1983-yilda 1 million, hozirgi kunga kelib 2 milliondan oshdi.

## Hududlarning aholi soni bo‘yicha guruhlanishi

2024-yil 1-yanvar holatiga, kishi



4 mln+

- Samarqand
- Farg‘ona

3 mldan  
4 mlingacha

- Andijon
- Qashqadaryo
- Namangan
- Toshkent vil.
- Toshkent sh.

2 mldan  
3 mlingacha

- Surxondaryo
- Buxoro
- Qoraqalpog‘iston R.

1 mldan  
2 mlingacha

- Jizzax
- Navoiy
- Xorazm

1 mlingacha

- Sirdaryo

## Eng ko‘p doimiy aholi qaysi hududlarda?

2024-yil 1-yanvar holatiga

➤ O‘zbekistonda aholi soni 4 milliondan oshgan viloyatlar soni ikkitaga yetdi.

Samarqand viloyatida 4 208,5 ming kishini, shundan erkaklar 2 119,6 ming kishini, ayollar esa 2 088,9 ming kishini tashkil etadi.




Farg‘ona viloyatida 4 061,5 ming kishini, shundan erkaklar 2 049,5 ming kishini, ayollar esa 2 012,0 ming kishini tashkil etadi.

*Aholi zichligi – muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi.*

### O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi


2024-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



O‘zbekiston Respublikasida 2024-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha **82,0** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,8** kishiga ortgan (2023-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **80,2** kishi). Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida **6787,5** kishi, Andijon viloyatida **789,4** kishi, Farg‘ona viloyatida **600,8** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati **9,7** kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **12,0** kishini tashkil etgan.

### Aholi zichligi dinamikasi

1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni


2024-yil 1-yanvar holatiga

### Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi



Hududlar bo‘yicha doimiy aholisi soni eng ko‘p Samarqand viloyatida **4 208,5** ming kishi, Farg‘ona viloyatida **4 061,5** ming kishi, Qashqadaryo viloyatida **3 560,6** ming kishi, eng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida **914,0** ming kishi, Navoiy viloyatida **1 075,3** ming kishi va Jizzax viloyatida **1 507,4** ming kishini tashkil etgan.

### Aholi ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami aholiga nisbatan



Doimiy aholi sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida **11,4 %**, Farg‘ona viloyatida **11,0 %**, Qashqadaryo viloyatida **9,7 %**, Andijon viloyatida **9,2 %** va Namangan viloyatida **8,3 %** ni tashkil etgan.

### Aholi ulushi nisbatan kam bo‘lgan hududlar, jami aholiga nisbatan



Doimiy aholisi sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida **2,5 %**, Navoiy viloyatida **2,9 %**, Jizzax viloyatida **4,1 %**, Xorazm viloyatida **5,4 %** va Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa **5,4 %** ni tashkil etgan.




## II BO‘LIM. TUG‘ILISH


### O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan tug‘ilishlar

2023-yil yanvar-dekabr

Yanvar-dekabr oylarida  
tug‘ilishlar soni, ming kishi




O‘sish sur‘ati



Jinsi bo‘yicha taqsimlanishi  
2023-yil yanvar-dekabr

#### O‘g‘il bolalar




#### Qiz bolalar



Choraklar yakunlari, ming kishi/ulushi

#### 2023-yil yanvar-mart



Shahar va qishloq joylar  
bo‘yicha taqsimlanishi  
2023-yil yanvar-dekabr


#### Shahar




#### Qishloq



#### 2023-yil yanvar-iyun



#### 2023-yil yanvar-sentabr




2023-yil yanvar-dekabr oylarida tirik tug‘ilganlar soni 962,0 ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni 498,3 ming kishini, qiz bolalar soni 463,7 ming kishi, tirik tug‘ilganlar soni shahar joylarida 480,2 ming kishini, qishloq joylarida 481,8 ming kishini tashkil etdi.

*Tirik tug‘ilish* – nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishlaridan biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim;

### Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarni chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar **97,8 %** ni, 2 nafar tug‘ilganlar **2,1 %** ni, 3 nafar va undan ortiq tug‘ilganlar **0,1 %** ni tashkil etdi.

*Tug‘ilganlar sonini aniqlashda Oila kodeksiga muvofiq, tug‘ilgan chaqaloqning onasi yoki otasining doimiy yashash joyiga qarab tug‘ilgan hududi aniqlanadi hamda o‘sha hududning aholisi soniga qo‘shiladi;*

### Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr




2023-yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **12,8 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **80,3 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **6,9 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **38,1 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **60,8 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,1 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar

2023-yil yanvar-dekabr

### Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va ko‘effitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha tug‘ilish ko‘effitsiyenti eng yuqori Surxondaryo viloyatida **30,9** promille, Qashqadaryo viloyatida **28,9** promille, Namangan viloyatida **27,9** promille, eng kam ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida **22,1** promille Buxoro viloyatida **23,0** promille va Toshkent viloyatida **24,2** promilleni tashkil etgan.

### O‘sish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Tug‘ilishlarning o‘sish sur‘ati eng yuqori darajasi Xorazm viloyatida **107,6 %** ga, Surxondaryo viloyatida **107,5 %** ga, Farg‘ona viloyatida **105,1 %** ga, Qashqadaryo viloyatida **103,7 %** ga va Andijon viloyatida **103,4 %** ga teng bo‘lgan.

### Tug‘ilish ko‘effitsiyenti yuqori bo‘lgan hududlar




Tug‘ilishlarning ko‘effitsiyenti eng yuqori darajasi Surxondaryo viloyatida **30,9 ‰** da, Qashqadaryo viloyatida **28,9 ‰** da, Namangan viloyatida **27,9 ‰** da, Jizzax viloyatida **27,4 ‰** da va Samarqand viloyatida **27,4 ‰** da kuzatilgan.


### III BO‘LIM. VAFOT ETGANLAR

#### O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar 2023-yil yanvar-dekabr

Yanvar- dekabr oylarida vafot etganlar soni, ming kishi




O‘shish sur‘ati




Jinslar bo‘yicha taqsimlanishi  
2023-yil yanvar-dekabr

#### Erkaklar



#### Ayollar



Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi  
2023-yil yanvar-dekabr

#### Shahar




#### Qishloq




Choraklar yakunlari, ming kishi/ulushi


#### 2023-yil yanvar-mart



#### 2023-yil yanvar-iyun



#### 2023-yil yanvar-sentabr



2023-yil yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar soni 172,8 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 95,0 ming kishini, ayollar soni 77,8 ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida 93,6 ming kishini, qishloq joylarida 79,2 ming kishini tashkil etdi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta‘sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari;

## O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr, % da

O‘simtalardan **10,8%**

Nafas olish a‘zolari kasalliklaridan **5,5%**


Qon aylanish tizimi kasalliklaridan **61,1%**

Yuqumli va parazitlar kasalliklardan **1,3%**

Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan **4,1%**

Boshqa kasalliklardan **12,4%**


Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan **4,8%**



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **61,1** foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **10,8** foizi – o‘simtalardan, **5,5** foizi – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **4,8** foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,1** foizi – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,3** foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **12,4** foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

## O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar-dekabr



2023-yil yanvar-dekabr oylarida vafot etganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar **8,8** % ni, mehnatga layoqatli yoshdagilar **24,6** % ni va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar **66,6** % ni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar  
2023-yil yanvar-dekabr

Hududlar kesimida o‘limlar soni  
va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo‘yicha vafot etish koeffitsiyenti eng yuqori Toshkent shahrida 5,2 promille, Qoraqalpog‘iston Respublikasida Toshkent viloyatida va Sirdaryo viloyatida 5,1 promille, eng kam ko‘rsatkich Navoiy viloyatida va Buxoro viloyatida 4,3 promilleni tashkil etgan.

O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan  
hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



O‘limlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Navoiy viloyatida 109,5 % ga, Sirdaryo viloyatida 109,3 % ga, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 105,2 % ga, Toshkent viloyatida 104,7 % ga va Andijon viloyatida 103,2 % ga teng bo‘lgan.

O‘lim koeffitsiyenti yuqori  
bo‘lgan hududlar




O‘limlarning koeffitsiyenti eng yuqori darajasi Toshkent shahrida 5,2 ‰ ni, Sirdaryo viloyatida 5,1 ‰ ni, Toshkent viloyatida 5,1 ‰ ni, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5,1 ‰ ni va Surxondaryo viloyatida 4,8 ‰ ni tashkil etib, sezilarli kamaygan.

## IV BO‘LIM. NIKOHLAR


### O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan nikohlar

2023-yil yanvar-dekabr

#### Yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni, ming birlik



#### O‘shish sur‘ati



2023-yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **283,8** ming birlikni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **12,9** birlikka kamaygan. 2020-yilning mos davri bilan taqqoslanganda **13,0** ming birlikka kamaygan.

#### Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi 2023-yil yanvar-dekabr

##### Shahar



**139,7**  
ming birlik

**49,2 %**

##### Qishloq



**144,1**  
ming birlik

**50,8 %**

#### Choraklar yakunlari, ming birlik/ulushi

##### 2023-yil yanvar-mart



**23,3**  
ming birlik

**47,0 %**



**26,2**  
ming birlik

**53,0 %**

##### 2023-yil yanvar-iyun



**49,9**  
ming birlik

**50,6 %**



**48,7**  
ming birlik

**49,4 %**

##### 2023-yil yanvar-sentabr



**94,2**  
ming birlik

**51,0 %**



**90,3**  
ming birlik

**49,0 %**

2023-yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **283,8** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **139,7** mingtani (**49,2 %**), qishloq joylarida **144,1** mingtani (**50,8 %**) tashkil etgan.

*Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi;*

### Nikohlanganlarning o‘rtacha yoshi

2023-yil yanvar- dekabr




2023-yil yanvar- dekabr oylari davomida qayd etilgan nikohlarda ayollarning o‘rtacha yoshi **22,2** yoshni, erkaklarning o‘rtacha yoshi esa **27,0** yoshni tashkil etgan. Qayd etilgan nikohlarning eng katta ulushi 25 yoshgacha bo‘lgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohlarning **81,3** foizini tashkil etgan.

*Nikoh yoshi – O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda, nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin;*

### Nikohlanuvchi ayollarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar- dekabr, %






## O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qayd etilgan nikohlar


2023-yil yanvar-dekabr

### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Hududlar bo‘yicha nikoh koeffitsiyenti eng yuqori Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatida 8,8 promille, Xorazm viloyatida 8,3 promille, eng past ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasi 6,8 promille, Toshkent viloyatida 7,0 promilleni tashkil etgan.

### O‘sish sur‘ati nisbatan yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Nikohlarning o‘sish sur‘ati nisbatan yuqori darajasi Namangan viloyatida 99,1 % ga, Toshkent shahrida 99,1 % ga, Xorazm viloyatida 98,8 % ga, Andijon viloyatida 97,3 % ga va Farg‘ona viloyatida 97,2 % ga teng bo‘lgan.

### Nikoh koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan hududlar




Nikohlarning koeffitsiyenti eng yuqori darajasi Qashqadaryo viloyatida 8,8 ‰ da, Surxondaryo viloyatida 8,8 ‰ da, Xorazm viloyatida 8,3 ‰ da, Jizzaxviloyatida 8,0 ‰ da va Sirdaryo viloyatida 8,0 ‰ da ekanligi qayd qilingan.

V BO‘LIM. NIHOHDAN AJRALISHLAR

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar  
2023-yil yanvar-dekabr

Yanvar-dekabr oylarida nikohdan  
ajralishlar soni, ming birlik



2023-yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni 49,2 ming birlikni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 21,0 mingtaga yoki 1,7 barobarga ko‘payganligi kuzatildi.

Shahar va qishloq joylar  
bo‘yicha taqsimlanishi  
2023-yil yanvar-dekabr

Shahar

60,7 %



29,9  
ming birlik

Qishloq


39,3 %



19,3  
ming birlik

2023-yil yanvar-dekabr oylarida nikohdan ajralishlarning soni 49,2 mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida 29,9 mingtani, (60,7 %), qishloq joylarida 19,3 mingtani (39,3 %) tashkil etdi.

O‘sish sur‘ati



Choraklar yakunlari,  
ming birlik/ulushi

2023-yil yanvar-mart



7,8  
ming birlik

59,7 %

40,3 %



5,2  
ming birlik

2023-yil yanvar-iyun



15,3  
ming birlik

60,2 %

39,8 %



10,1  
ming birlik

2023-yil yanvar-sentabr



22,8  
ming birlik

60,5 %

39,5 %



14,9  
ming birlik

*Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarining to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh sud hal qiluv qarorlari asosida yoki FHDYO ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi;*

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr

50,0 %



**Farzandsiz ajrashganlar**

2023-yil yanvar-dekabr oylarida farzandsiz nikohdan ajralishlar soni **24 576** tani tashkil etgan.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida 1 nafar farzand bilan nikohdan ajralishlar **13 610** soni tani tashkil etgan.

27,7 %



**1 nafar farzand bilan ajrashganlar**

22,3 %



**2 va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar**

2023-yil yanvar-dekabr oylarida 2 va undan ortiq farzand bilan nikohdan ajralishlar soni **11 012** tani tashkil etgan.

## Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi

2023-yil yanvar-dekabr

**Erkaklar**

**37,2**

yosh



**Ayollar**

**32,8**


yosh

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida erkaklar uchun **37,2** yoshni, ayollar uchun **32,8** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo‘lgan ajralayotgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohdan ajrashganlarning **62,5 %** ini tashkil etgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar


2023-yil yanvar-dekabr

### Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik




Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqorisi Toshkent shahrida 2,1 promille, Sirdaryo viloyatida 1,7 promille, Andijon va Toshkent viloyatida 1,6 promille, eng kam ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida Qashqadaryo viloyatlarida 1,0 promilleni tashkil etgan.

### O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Nikohdan ajralishlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Xorazm viloyatida 110,0 % ga, Andijon viloyatida 109,5 % ga, Farg‘ona viloyatida 107,4 % ga, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida 107,1 % ga teng bo‘lgan.

### Nikohdan ajralish koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan hududlar




Nikohdan ajralishlarning koeffitsiyenti eng yuqori darajasi Toshkent shahri 2,1 ‰, Sirdaryo viloyatida 1,7 ‰, Andijon viloyatida 1,6 ‰, Toshkent viloyatida 1,6 ‰ va Namangan viloyatida 1,4 ‰ ekanligi qayd etilgan.

VI BO‘LIM. MIGRATSIYA


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

2023-yil yanvar-dekabr

Yanvar-dekabr oylarida jami ko‘chib kelganlar soni, ming kishi




O‘sish sur‘ati




Jinslar kesimida taqsimlanishi  
2023-yil yanvar-dekabr

Erkaklar




Ayollar



Choraklar yakunlari, ming kishi/ulushi

2023-yil yanvar-mart




Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi  
2023-yil yanvar-dekabr


Shahar




Qishloq



2023-yil yanvar-iyun



2023-yil yanvar-sentabr




2023-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib kelganlar soni 218,8 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 91,0 ming kishini, ayollar soni 127,8 ming kishi, ko‘chib kelganlar soni shahar joylarida 169,7 ming kishini, qishloq joylarida 49,1 ming kishini tashkil etdi.

*Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;*

## Ko‘chib kelganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar-dekabr



2023-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib kelganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 9,2 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 82,6 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 8,2 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr



O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan 39,8 %), Qozog‘iston Respublikasi (24,6 %), Tojikiston Respublikasi (9,7 %), Qirg‘iz Respublikasi (5,1 %), Turkmaniston Respublikasi (2,1 %) va boshqa mamlakatlar (18,7 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning jinslar kesimida taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr



**49,8 %**  
**Erkaklar**


**50,2 %**  
**Ayollar**



2023-yil yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlar soni **2 955** kishini tashkil etib, shundan erkaklar soni **1 473** kishini, (**49,8 %**) ayollar soni esa **1 482** kishini (**50,2 %**) tashkil etdi.

## Oylar bo‘yicha xorijdan ko‘chib kelganlar

2023-yil yanvar-dekabr, kishi




So‘nggi 5 yil davomida xorijdan ko‘chib kelganlar soni ko‘rsatkichi oylar kesimida tahlil etilganda, nisbatan kam xorijdan ko‘chib kelganlar soni 2019-yilda avgust oyiga, 2020-2021-yillarda aprel oyiga, 2022- yilda yanvar va 2023-yilda may oylarida qayd etilgan bo‘lsa, eng ko‘p xorijdan ko‘chib kelganlar soni esa 2019-yilda fevral oyiga, 2020-yilda yanvar oyiga, 2021-yilda fevral, 2022- yilda oktabr va 2023-yilda yanvar oylarida qayd etilganligi kuzatildi.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar


2023-yil yanvar-dekabr

### Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqorisi Toshkent shahrida **31,5** promille, Navoiy viloyatida **9,9** promille, Toshkent viloyatida **9,4** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **0,9** promille, Andijon viloyatida **2,0** promille va Farg‘ona viloyatida **2,2** promilleni tashkil etgan.

### O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Ko‘chib kelganlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Buxoro viloyatida **125,8 %** ga, Navoiy viloyatida **120,7 %** ga, Samarqand viloyatida **119,8 %** ga, Xorazm viloyatida **117,9 %** ga va Qoraqalpog‘iston Respublikasi **107,7 %** ga teng bo‘lgan.

### Ko‘chib kelganlar koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan hududlar




Ko‘chib kelganlarning koeffitsiyenti eng yuqori darajasi Toshkent shahrida **31,5 %**, Navoiy viloyatida **9,9 %**, Toshkent viloyatida **9,4 %**, Sirdaryo viloyatida **7,3 %** va Qoraqalpog‘iston Respublikasi **4,2 %** qayd etilgan.




O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar  
2023-yil yanvar-dekabr

Yanvar-dekabr oylarida jami ko‘chib ketganlar soni, ming kishi




O‘shish sur‘ati




Jinslar kesimida taqsimlanishi  
2023-yil yanvar-dekabr

Erkaklar



Ayollar




Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi  
2023-yil yanvar-dekabr

Shahar




Qishloq




2023-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib ketganlar soni 233,2 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 97,8 ming kishini, ayollar soni 135,4 ming kishi, ko‘chib ketganlar soni shahar joylarida 158,7 ming kishini, qishloq joylarida 74,5 ming kishini tashkil etdi.

Choraklar yakunlari, ming kishi/ulushi


2023-yil yanvar-mart



2023-yil yanvar-iyun




2023-yil yanvar-sentabr



*Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan chiqarishda tuziladigan ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;*

## Ko‘chib ketganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar-dekabr



2023-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib ketganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 10,1 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 81,4 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 8,5 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr



O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami 81,1 %), Rossiya Federatsiyasi (15,4 %), Janubiy Koreya (0,6 %), Qirg‘iz Respublikasi (0,5 %), Turkmaniston Respublikasi (0,2 %) va boshqa mamlakatlar (2,2 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning jinslar kesimida taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr



47,7 %  
**Erkaklar**




52,3 %  
**Ayollar**



2023-yil yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlar soni **17 336** kishini tashkil etib, shundan erkaklar soni **8 270** kishini, (**47,7 %**) ayollar soni esa **9 066** kishini (**52,3 %**) tashkil etdi.

## Oylar bo‘yicha xorijga ko‘chib ketganlar

2023-yil yanvar-dekabr, kishi



So‘nggi 5 yil davomida xorijga ko‘chib ketganlar soni ko‘rsatkichi oylar kesimida tahlil etilganda, nisbatan kam xorijga ko‘chib ketganlar soni 2019-yilda fevral oyiga, 2020-yilda aprel oyiga, 2021-yilda dekabr oyiga, 2022- yilda avgust va 2023-yilda dekabr oylarida qayd etilgan bo‘lsa, eng ko‘p xorijga ko‘chib ketganlar soni esa 2019-yilda iyul oyiga, 2020-yilda oktabr oyiga, 2021-yilda avgust, 2022- yilda oktabr va 2023-yilda avgust oylarida qayd etilganligi kuzatildi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

2023-yil yanvar-dekabr

Ko‘chib ketganlar soni va  
koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqorisi Toshkent shahrida **23,2** promille, Navoiy viloyatida **12,2** promille, Toshkent viloyatida **9,2** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **1,6** promille, Andijon viloyatida **2,5** promille va Farg‘ona viloyatida **2,9** promilleni tashkil etgan.

O‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan  
hududlar, 2022-yilga nisbatan, % da



Ko‘chib ketganlarning o‘shish sur‘ati eng yuqori darajasi Navoiy viloyatida **141,3 %** ga, Buxoro viloyatida **121,5 %** ga, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **119,5 %** ga, Xorazm viloyatida **118,3 %** ga va Toshkent shahrida **110,8 %** ga teng bo‘lgan.

Ko‘chib ketganlarning koeffitsiyenti  
yuqori bo‘lgan hududlar



Ko‘chib ketganlarning koeffitsiyenti eng yuqori darajasi Toshkent shahrida **23,2 %**, Navoiy viloyatida **12,2 %**, Toshkent viloyatida **9,2 %**, Sirdaryo viloyatida **8,5 %** va Qoraqalpog‘iston Respublikasi **8,0 %** qayd etilgan.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylar (ovullar, qishloqlar va boshqalar)da istiqomat qiluvchi aholi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023-yil 24-maydagi 10-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.



Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi

Tel: 71 203 80 00 (ichki 1240)

[z.yuldoshev@stat.uz](mailto:z.yuldoshev@stat.uz)

PRESS-RELIZ

